

# TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORIDAGI FAOLIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11402352>

**Avezov Ibrohim Ilhomovich**  
*TDIU o‘qituvchisi*

Zamonaviy iqtisodiyotda banklar faoliyatining ahamiyati ulkan bo‘lib, ular moliya bozorining turli segmentlari, xususan, qimmatli qog‘ozlar bozorining eng faol ishtirokchilaridan biri hisoblanadi. Banklar ham ichki, ham xalqaro qimmatli qog‘ozlar bozorlarida emitent, investor va vositachi sifatida xizmat ko‘rsatishi mumkin. Bularning barchasi banklarni moliya bozorining muhim ishtirokchisiga aylantirib, mamlakatga ichki va tashqi moliyaviy resurslar mobilizatsiyasini jadallashtirishga va bu bilan iqtisodiy o‘shishga xizmat qiladi.

Shu sababli so‘nggi yillarda mamlakatimizda tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini yanada rivojlantirish uchun alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘tgan yillar davomida xukumat xayrihohligida yurtimizning etakchi banklari bo‘lmish TIF Milliy banki, O‘zsanoatqurilishbank va Ipoteka banklari tomonidan xorijiy va milliy valyutalarda evroobligatsiyalar chiqarilib, xalqaro birjalar orqali muvaffaqiyatli joylashtirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan yurtimizning yirik banklari tomonidan xalqaro qimmatli qog‘ozlar bozorida evroobligatsiyalarning yangi chiqariluvini amalga oshirish ko‘zda tutilishi ushbu islohotlarning davom etirilishidan darakdir<sup>1</sup>. Ammo amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramay banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi operatsiyalar ulushi kichikligicha qolmoqda. Masalan, 12.01.2023 yil holatiga bank aktivlarining deyarli 75 foizini kreditlar tashkil qilishi, banklarning asosiy faoliyati xanuzgacha asosan kreditlar

---

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.11.2023 yildagi “Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-366-sonli qarori [www: lex.uz](http://www.lex.uz)

berishga qaratilgan bo‘lib, qimmatli qog‘ozlar bozoridagi investitsion faoliyatini sustligidan dalolat bermoqda<sup>2</sup>.

Mamlakatimizda banklarning emitent sifatida faoliyati aksiyalar, korporativ obligatsiyalar, depozit sertifikatlarini muomalaga chiqarishi va investorlar o‘rtasida joylashtirishi bilan izohlanadi. Shuningdek, Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog‘ozlarini, shuningdek Markaziy bankning o‘zi chiqargan obligatsiyalar tarzidagi qarz majburiyatlarini; Markaziy bankning qaroriga ko‘ra boshqa qimmatli qog‘ozlarni sotib olishi va sotishi mumkin<sup>3</sup>.

“Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston respublikasi qonuniga ko‘ra tijorat banklari qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, xarid qilish, sotish, ularning hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog‘ozlarni boshqarish<sup>4</sup>, ular bilan boshqa operatsiyalarni bajarish kabi faoliyatlarni amalga oshiradi.

Umumiy jihatdan banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi operatsiyalarni quyidagilarga ajratishimiz mumkin<sup>5</sup>:

- qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, sotib olish, sotish, saqlash;
- qimmatli qog‘ozlarga mablag‘lar kiritish;
- ishonchli boshqaruvchi sifatida mijoz topshirig‘i asosida qimmatli qog‘ozlarni boshqarish; funksiyalarini bajarish, broker vazifasini bajarish;
- qimmatli qog‘ozlar chiqarish va muomalasi masalalari bo‘yicha konsultatsion xizmatlar ko‘rsatish (investitsiya maslahatchiligi);
- investitsion kompaniya, anderrayter sifatida qimmatli qog‘ozlar chiqarilishini tashkil etish;
- qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish bo‘yicha uchinchi shaxslar foydasiga kafolat berish;

O‘zbekiston Respublikasi bank-moliya tizimida investitsiya banklarini tashkil qilish mexanizmlari, vositalarini ishlab chiqish, amaldagi qimmatli qog‘ozlar

---


2 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2023 yil 1 dekabrda byulleteni.

3 “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida” gi qonun, 30-modda


4 O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni, 5-modda.

5 S.Elmirzayev va boshqalar. Moliya bozori. //: Darslik, – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 222 b.

bozorini samarali tartibga solish uchun mavjud qonuniy-me'yoriy xujjatlarga o'zgartirishlar kiritish, fond bozori uchun mutlaqo yangi infratuzilmani shakllantirish, unda ishtirok etuvchilar faoliyat yuritishda va tashkil etishda yangi huquqiy normativlarni qo'llash dolzarb bo'lib qolmoqda.



1-rasm. Sohalar bo'yicha 2022 yilda tuzilgan bitimlar soni, dona<sup>6</sup>



2-rasm. Sohalar bo'yicha 2022 yilda tuzilgan bitimlar hajmi<sup>7</sup>, %

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida ishtiroki ancha past darajada, buni tijorat banklarning aktivlari tarkibida investitsiyalarning 1,5 foizni tashkil etishidan ham anglashimiz mumkin. 1-rasmda

<sup>6</sup> "Toshkent" Respublika fond birjasi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

<sup>7</sup> "Toshkent" Respublika fond birjasi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

keltirilgan ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, 2022 yildagi sohalar bo'yicha jami tuzilgan bitimlar sonining 47.94% tijorat banklariga to'g'ri keladi, bu birja bitimlari umumiy sonining 32,26 foizini tashkil etgan.

Qimmatli qog'ozlar bozori rivojlangan mamlakatlar banklari faoliyatini tahlil qilib ko'rsak, ularga nisbatan mamlakatimiz tijorat banklarining investitsion faoliyati qoniqarsiz darajada, demak mamlakatimizdagi banklar bu operatsiya orqali aktivlarni diversifikatsiyalash va risklarni kamaytirish imkoniyatlaridan samarali darajada foydalana olmayapti, buga qator sabablar ta'sir qiladi, ularning asosiylari sifatida qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmaganligi, shu bilan bir qatorda banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida majburiyat va huquqlarini himoya qiluvchi huquqiy asoslar yetarli emasligini keltirib o'tishimiz mumkin.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, tijorat banklari mamlakatimiz qimmatli qog'ozlar bozorining faol ishtirokchilari bo'lishiga qaramay, uning aktivlari tarkibida qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investitsiyalar ulushi kichikligicha qolmoqda. Shuningdek, so'nggi yillarda bar qator banklar tomonidan xalqaro moliya bozorida o'z evroobligatsiyalarini joylashtirish amaliyoti kengayapti, ammo banklar tomonidan ichki qimmatli qog'ozlar bozorida qarz qimmatli qog'ozlarini chiqarish amaliyoti kamayib ketdi.

Yuqorida keltirilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun tijorat banklariga quyidagi tavsiyalar taklif etilmoqda:

- Yuqori devalvatsiya sharoitida Qimmatli qog'ozlar bozori orqali ichki moliyaviy resursni qarz qimmatli qog'ozlarini joylashtirish orqali jalb qilish;
- Bank aktivlari tarkibini diversifikatsiya qilish maqsadida, yuqori rentabelli kompaniyalar qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilish amaliyotni kengaytirish;
- Xalqaro moliya bozorlarida milliy valyutadagi evroobligatsiyalar chiqariluvchi va joylashtirilishi amaliyotini ko'paytirish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida" gi qonun, 30-modda. <https://lex.uz/acts/-4590452>

2. O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni, 5-modda. <https://lex.uz/docs/-4581969>
3. Elmirzayev. Zamonaviy korporativ boshqaruv. // Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 416 b.
4. Элмирзаев С.Э., Боев Б.Ж. Акцияларни оммавий жойлаштириш операцияларини ташкил этиш ва ўтказиш. // “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 3, июнь, 2018 йил. – Б.8; <http://interfinance.uz/en/arxiv/238-ikkiz20182307>

